


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**IJTIMOIIY FANLAR BLOK MODULI BO‘YICHA
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(VIII SINF)**

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI



Toshkent-2018

VIII SINF
O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI
TUSHUNTIRISH XATI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-11-sinflarida o‘qitiladigan “Davlat va huquq asoslari” fanida huquq sohasiga kirish, jamiyat, davlat va huquq tushunchalari, davlat shakllari, davlat va jamiyat munosabatlari, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati, huquqbuzarlik, voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari, shuningdek, davlat va huquq asoslari fani haqidagi dastlabki ma’lumotlar, davlat va huquqning konstitutsiyaviy asoslari haqida, davlat hokimiyat organlari faoliyati, ularning vakolatlari, shuningdek fuqarolarning davlat va jamiyat oldidagi huquq, burch va majburiyatlar, huquq sohalariga oid normativ hujjatlar bilan tanishadi.

O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fanini o‘qitishning maqsadi: o‘quvchilarni huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, o‘quvchilarga davlat va huquqning kelib chiqishi, davlat va huquqning o‘zaro munosabati, huquq sohalar, qonunlar, huquqning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy, ijodiy, erkin va mustaqil fikrlashini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fanini o‘qitishning vazifalari:

o‘quvchilarda asosiy huquqiy tushunchalar, nazariyalar va qonuniyatlar to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish;

o‘quvchilarni o‘zlarining va o‘zgalarning huquqlarini bilishlari, burch va majburiyatlariga rioya qilishlariga yo‘naltirish;

davlat va uning qonunlarini hurmat qilish, ularga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

huquqiy bilimlar zaminida normativ huquqiy hujjatlar, zamonaviy qonunchilikdagi yutuqlar, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan olimlarning huquq faniga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, huquq fanidan olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

O‘ZBEKISTON DAVLATI VA HUQUQI ASOSLARI FANIDAN
O‘QUV DASTURI
VIII SINF
(34 soat)

1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi - mustaqil davlat.

O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari fanining o‘rganish masalalari. Mustaqil O‘zbekiston davlatining bunyod bo‘lishi. Mustaqil davlat belgilari.

I BOB. SHAXS, JAMIYAT VA DAVLAT
(7 soat)

2-mavzu: Shaxs

Shaxs tushunchasi. Shaxsning huquqiy holatlari.

3-mavzu: Jamiyat

Jamiyat haqida tushuncha. Jamiyatning asosiy tarkibiy qismlari va tuzilishi. Inson va jamiyat.

4-mavzu: Davlat

Davlat tushunchasi. Davlatning belgilari. Davlat shakli va uning tarkibiy tuzilishi.

5-mavzu: Davlat funksiyasi

Davlat funksiyasi tushunchasi. Davlatning ichki va tashqi funksiyalari.

6-mavzu: Davlatning boshqaruv shakli

Davlat boshqaruv shakli tushunchasi. Monarxiya va respublika shaklidagi davlatlar.

7-mavzu: Davlatning tuzilish shakli

Davlat tuzilish shakli tushunchasi. Unitar va federativ davlatlar belgilari.

8-mavzu: Siyosiy tartibot (rejim). Davlat organlari. Davlat mexanizmi

Siyosiy rejim tushunchasi va uning turlari. Davlat organlari. Davlat mexanizmi va uning tuzilishi.

II BOB. FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQIY DAVLAT
(2 soat)

9-mavzu: Fuqarolik jamiyati

Fuqarolik jamiyati tushunchasi. Fuqarolik jamiyatining belgilari. Fuqarolik jamiyati institutlari. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni. Fuqarolik jamiyatida davlatning o‘rni.

10-mavzu: Huquqiy davlat

Huquqiy davlat tushunchasi. Huquqiy davlatning belgilari.

III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT
BOSHQARUVINING TASHKIL ETILISHI
(6 soat)

11- mavzu: O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi

O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi tushunchasi. Hokimiyat vakolatlarini taqsimlash prinsipi. O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi.

12-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Prezidenti

Prezident davlat boshlig'i. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga nomzod bo'lgan shaxslarga qo'yiladigan talablar.

13-mavzu: O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi – davlat hokimiyatining oliy vakillik organi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senati (yuqori palata)ning vakolatlari. Qonunchilik palatasi va Senatning tarkibi.

14-mavzu: O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi organlari

O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyatining tizimi. Vazirlar Mahkamasining tarkibi va asosiy vazifalari. Ijro etuvchi hokimiyatining asosiy vazifalari. Mahalliy (viloyatlar, tumanlar va shaharlar) hokimiyat organlarining vazifalari.

15-mavzu: O'zbekiston Respublikasining sud tizimi

Sud hokimiyati tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining sud tizimi. Sudyalarning faoliyati.

**IV BOB. AXLOQ VA HUQUQ. HUQUQIY MUNOSABATLAR
(6 SOAT)**

16-mavzu: Axloq va huquq

Axloq va huquqning vujudga kelishi. Axloq va huquq tushunchalari, ularning farqlari. Huquqning funksiyalari.

17-mavzu: Huquq normalari

Huquq normasi tushunchasi. Huquq normasining tarkibiy tuzilishi va turlari.

18-mavzu: Huquq sohalari

Huquq sohasi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi.

19-mavzu: Huquqiy munosabatlari

Huquqiy munosabat tushunchasi. Huquqiy munosabatlarning sub'ektlari va ob'ektlari. Huquqiy munosabatlarning mazmuni. Sub'ektiv huquq va yuridik majburiyat. Huquqiy layoqat va muomala layoqati.

20-mavzu: O'zbekiston Respublikasining qonun manbalari

Huquq manbalari tushunchasi. Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari. Konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun, Qonunlar. Qonun ostoni hujjatlari. Xalqaro shartnomalar.

21-mavzu: Huquqiy ong va huquqiy madaniyat

Huquqiy ong tushunchasi. Huquqiy madaniyat tushunchasi. O'zbekistonda aholini huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan islohotlar.

Amaliy mashg'ulot

**V BOB. HUQUQBUZARLIK VA YURIDIK JAVOBGARLIK.
(5 SOAT)**

22-mavzu: Huquqbuzarlik

Huquqbuzarlik tushunchasi. Huquqbuzarlikning asosiy belgilari. Ijtimoiy xavflilik. Huquqqa zidlik. Ayblilik, jazo, hulq-atvor qoidalari. Huquqbuzarlik turlari.

23-mavzu: Yuridik javobgarlik

Huquqiy javobgarlik tushunchasi. Huquqiy javobgarlik turlari.

24-mavzu: Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqida tushuncha. O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi. Davlat xavfsizlik xizmati. Ichki ishlar vazirligi.

25-mavzu: Adliya vazirligi . Advokatura va notarial idoralar

Adliya organlari tizimi. Advokaturaning asosiy faoliyati. Notarial idoralar.

26-mavzu: Qurolli Kuchlar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi.

**VI BOB.VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQLARI VA BURCHLARI
(4 soat)****27-mavzu: Fuqarolik qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari**

Fuqarolik huquqi tushunchasi. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquqiy munosabatlari. Voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquqlari va burchlarining kelib chiqish asoslari. Fuqarolik huquqining himoya qilinishi.

28-mavzu: Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari

Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishi sabablari. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining umumiy qoidalari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi va turlari. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlash.

29-mavzu: Oila qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlari

Oilalarning huquqi tushunchasi. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari. Oilada bola manfaatlari. Oilada voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari. Bolalarning turar joyga bo'lgan huquqi.

30-mavzu: Mehnat qonunchiligida voyaga yetmaganlarning huquqlari

Mehnat huquqi tushunchasi. Mehnatga oid huquqiy munosabatlarda voyaga yetmaganlarning huquqlari. Voyaga yetmaganlarning mehnatiga haq to'lash, ularning ish vaqti va dam olish vaqti. Xalqaro huquqda voyaga yetmaganlarning mehnat qilish huquqi.

Umumta'lim maktablari uchun

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Takrorlash	Nazorat ishi	Yakuniy nazorat ishi
1	Shaxs, jamiyat va davlat	7	7			
2	Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat	3	2	1		
3	O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvining tashkil etilishi	6	6			
4	Axloq va huquq. Huquqiy munosabatlar	8	6	1	1	
5	Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik	5	5			
6	Voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari	5	4			1
	Jami	34	30	2	1	1


Ixtisoslashtirilgan sinflar uchun

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Takrorlash	Nazorat ishi	Yakuniy nazorat ishi
1	Jamiyat va davlat.	18	17	1		
2	Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat.	20	18	1	1	
3	Axloq va huquq	20	20			
4	Huquqbuzarlik va yuridik javobgarlik	22	20	1	1	
5	Voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari	22	20	1		1
	Jami	102	95	4	2	1

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**IJTIMOIIY FANLAR BLOK MODULI BO‘YICHA
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(IX SINF)**

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI



Toshkent-2018

IX SINF “KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ ASOSLARI” DASTUR (34 SOAT)

TUSHUNTIRISH XATI

O‘quvchilar davlat va huquq asoslari faniga oid dastlabki tushunchalarni 1-4-sinflardagi “Konstitutsiya alifbosi” darslarida, shuningdek, 5-7-sinflarda “Konstitutsiya olamiga sayohat” darslari orqali oladilar. Mazkur sinflarda Konstitutsiya va uning mohiyati, inson bilan qonun va huquqning bog‘liqligi, qonunlar, inson huquqlari, fuqarolarning burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlar hosil qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’limning 8-11-sinflarida o‘qitiladigan “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” fanida jamiyat, davlat, shaxs va huquq tushunchalari, axloq va huquq munosabatlari, davlat va jamiyat munosabatlari, davlat shakllari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat, huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik va uning kelib chiqishi, voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari haqidagi tushunchalar, Konstitutsiyaviy huquq asoslariga doir tushunchalar: Konstitutsiyaning yaratilishi, asosiy prinsiplari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs munosabatlari, davlat hokimiyati organlari va ularning vakolatlari, shuningdek, saylov tizimi va ma’muriy hududiy tuzilishi haqida bilimlar, huquq sohalariga doir asosiy tushunchalar o‘rgatiladi va o‘quvchilarni huquqiy munosabatda ishtirok etishda huquq normalariga rioya etish ruhida tarbiya qilinadi. shuningdek, huquq sohalariga oid normativ – huquqiy hujjatlar bilan tanishib, ushbu normativ – huquqiy hujjatlarni amaliy hayotda qo‘llashga o‘rgatiladi.

Konstitutsiyaviy huquq asoslari fanini o‘qitishning maqsadi: o‘quvchilarni huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, o‘quvchilarga davlat va huquqning kelib chiqishi, davlat va huquqning o‘zaro munosabati, huquq sohalar, qonunlar, huquqning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy, ijodiy, erkin va mustaqil fikrlarini shakllantirishdan iborat.

Konstitutsiyaviy huquq asoslari fanini o‘qitishning vazifalari:

o‘quvchilarning asosiy huquqiy tushuncha, nazariya va qonuniyatlar to‘g‘risidagi bilimlarini shakllantirish;

o‘quvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko‘nikmasini hosil qilish;

huquq ta’limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog‘lanishini ta’minlash asosida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;

o‘quvchilarni o‘zlarining va o‘zgalarning huquqlarini bilishlari, burch va majburiyatlariga rioya qilishlariga yo‘naltirish;

davlat va uning qonunlarini hurmat qilish, ularga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

o‘quvchilarda o‘z xatti-harakatlarini belgilangan me‘yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat.

Huquqiy bilimlar zaminida huquqiy-normativ hujjatlar, zamonaviy qonunchilik yutuqlari, tarixda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan olimlarning huquq faniga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, huquq fanidan olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Dastur mavzularini o‘rganish uchun ajratilgan soatlar miqdori o‘qituvchi ixtiyoriga ko‘ra, maktab metodbirlashmasi va viloyat (shahar, tuman) xalq ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan holda qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarning Davlat ta’lim standartini o‘zlashtirish yuzasidan o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra o‘quvchilar bilimida aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida mavzularga ajratilgan soat hajmini 15% gacha o‘zgartirish va metodik kengash yig‘ilishida tasdiqlanishi maqsadga muvofiq.

Davlat va huquq asoslari fani chuqur o'qitiladigan sinflarda mazkur dasturda berilgan mavzular qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda kengaytirib o'qitiladi.

Umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilari "Konstitutsiyaviy huquq asoslari" fani bo'yicha ta'lim oluvchi bitiruvchilar quyidagi o'quv talablariga ega bo'ladilar:

- Konstitutsiyaviy asoslarni kundalik hayotda qo'llay oladi;
- o'zining huquq va majburiyatlarini anglaydi;
- boshqalarning huquqlariga daxl qilish huquqiy javobgarlik ekanligini anglaydi;
- ijtimoiy-huquqiy faollikni namoyon etadi;
- axloq va huquqning o'zaro aloqadorligini anglaydi;
- davlat va jamiyat majburiyatlarini anglaydi;
- davlat organlariga erkin murojaat qila oladi;
- huquqiy-me'yoriy hujjatlarga qonuniy munosabat bildiradi.

Eslatma: Ushbu o'quv dastur IX sinf uchun 2019-2020-o'quv yilidan amaliyotga joriy etiladi.

Darsliklar yuzasidan berilgan har bir bob va sinflar kesimidagi adabiyotlar ro'yxati o'qituvchi uchun qo'shimcha adabiyot va manba sifatida foydalanish uchun berilgan.

Kirish darsi.

9-sinf "Konstitutsiyaviy huquq" kursining maqsad va vazifalari. Konstitutsiya va konstitutsiyaviy huquqning o'zaro munosabatlari. Konstitutsiyaviy huquq – yetakchi huquq tarmog'i. Davlatda umummajburiy me'yorlar tizimi. Konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbalari. Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish tartibi.

I bo'lim.

KONSTITUTSIYA – DAVLATNING ASOSIY QONUNI (4 soat).

1-mavzu. Konstitutsiyaviy huquq. 1 soat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy mazmuni va tuzilmasi. Konstitutsiyaviy huquq – huquqning oliy tarmog'i ekanligi. Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish tartibi.

2-mavzu. Amaliyot darsi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mundarijasi va tavsifi. 1 soat.

Preambula: maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilgan umuminsoniy qadriyatlar. Konstitutsiyaning asosiy xususiyati – inson, uning hayoti va erkinlik oliy qadriyat deb ma'lum qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ustunligi.

3-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. Davlat suverentetligi. Suveren davlat belgilari. O‘zbekiston Respublikasi – mustaqil suveren davlat. Demokratiya – xalq hokimiyati. O‘zbekiston Respublikasida xalq hokimiyati shakllari. Konstitutsiyaviy tuzum tamoyillari.

4-mavzu. Amaliyot darsi. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati. 1 soat.

Davlatning tashqi siyosat faoliyati. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari. O‘zbekiston – xalqaro munosabatlarda teng huquqli sub’ekt.

Bo‘limdagi asosiy tushunchalar va atamalar:

Preambula, axloqiy va demokratik qadriyatlar, davlat mafkurasining yo‘qligi, davlat suverentitetligi, demokratiya, bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) demokratiya, vakillik (bilvosita) demokratiya, referendum, konstitutsiyaviy tamoyillar, xalqaro huquq, xalqaro huquq asosiy tamoyillari, tashqi siyosat asosiy tamoyillari, xalqaro munosabatlar sub’ektlari.

II bo‘lim.

INSON VA FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI (7 soat).

5-mavzu. Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari. 1 soat.

Davlat va insonning o‘zaro munosabatlari. Hokimiyat nima degani? O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy huquqlari va erkinligi: shaxsiy huquqlar va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, madaniy huquqlar. Gender huquqlar.

6-7-mavzu. Amaliyot darsi. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari. 1 soat.

Inson huquqlari va erkinliklari qonun himoyasida. Yashash huquqi. Sudda himoyalangan shaxsiy daxlsizlik huquqi. Izzat-obro‘, qadr-qimmatga tajovvuz qilish va shaxsiy hayotga aralashishdan himoya qilish huquqi. Turar-joy daxlsizligi huquqi. Ko‘chish va doimiy yashash o‘rnini tanlash huquqi. Fikr, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqi. Vijdon va din erkinligi huquqi.

8-mavzu. Amaliyot darsi. Inson va fuqaroning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari. 1 soat.

Ijtimoiy va ijtimoiy huquqlar to‘g‘risida tushunchalar. Insonning qanday huquqlari nisbatan eng muhim sanaladi? Shaxsiy mulkka egalik huquqi, mehnat erkinligi va faoliyatni tanlash erkinligi, ishsizlikdan himoyalangan. Malakali tibbiy

xizmat olish huquqi. Ta'lim olish huquqi. Erkinlik va texnik ijodkorlik huquqi va madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi.

9-mavzu. Siyosiy huquqlar. 1 soat.

Siyosiy huquqlar to'g'risida tushunchalar. Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan siyosiy huquqlari. O'z siyosiy huquqlarini qanday amalga oshirish mumkin? Fuqarolarning qonun loyihalari umumxalq muhokamasida ishtiroki. Yig'ilish erkinligi huquqi. Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik uyushmalariga birlashish huquqi. Davlat organlariga ariza, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqi.

10-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi. 1 soat.

Fuqarolik va uning inson uchun ahamiyati. Fuqarolik va davlat. Fuqarolikni qabul qilish va uni to'xtatish shartlari. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biologik pasporti. O'zbekiston fuqarosining huquqiy maqomi.

11-mavzu. Inson huquqi va erkinlari kafolatlari. 1 soat.

Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq huquq va erkinlik kafolatlarining ta'minlanishi. Inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi. O'z huquqlarini himoya qilish uchun qayerga murojaat qilish kerak? Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni.

12-mavzu. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari. 1 soat.

Huquq va majburiyatlar birligi. Qonun oldida tenglik. Balog'atga yetmagan fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyatlarga rioya etmaganlik uchun javobgarligi. Balog'at yoshiga yetmaganlar ishi bo'yicha idoralararo komissiya to'g'risidagi Nizom.

Bo'limdagi asosiy tushunchalar va atamalar:

demokratiya, umuminsoniy tamoyillar, inson huquqlari, insoning shaxsiy huquqlari, insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, davlat organlariga murojaat, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari, huquqlarning sud tomonidan himoyalaniishi, advokatura, huquqni himoyalar tashkilotlari, kasaba uyushmalari, Ombudsman, Konstitutsiyaviy sud, huquq va majburiyatlar birligi, Vatan himoyasi, muqobil xizmat, muddatli harbiy xizmat, bazaviy umumta'lim, konstitutsiyaviy majburiyatlar, qonun oldida tenglik.

III bo'lim.

JAMIYAT VA SHAXS. (4 soat.)

13-mavzu. Jamoatchilik birlashmalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati. 1 soat.

Jamoatchilik birlashmalari nima uchun kerak? Jamoatchilik birlashmalari turlari. Jamoatchilik birlashmalarini tuzish tamoyillari va faoliyati. Ommaviy axborot vositalari. Internet – ommaviy axborot vositasi sifatida. “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risda”gi Qonun.

14-mavzu. Siyosiy partiyalar faoliyati. 1 soat.

Demokratik huquqiy davlatda siyosiy partiyalar o‘rni. Davlat boshqaruvida fuqarolar ishtiroki. O‘zbekiston Respublikasida ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllanishi. “Siyosiy partiyalar to‘g‘risda”gi qonun.

15-mavzu. Oila jamiyatning buguni va kelajagi negizidir. 1 soat.

Oila va jamiyat. Davlat oila himoyasida. Nikoh to‘g‘risida tushuncha. Nikohdan o‘tish shartlari. Oilada bolalar huquqlari. “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun.

16-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi. 1 soat.

Davlat tuzilishi shakllari. O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining davlat tuzilishi.

Bo‘limdagi asosiy tushunchalar va atamalar:

jamoatchilik birlashmalari, davlat va jamoatchilik birlashmalari, bir partiyalik va ko‘p partiyalik tizimlar, ommaviy axborot vositalari, mafkuraviy plyuralizm, davlatning dunyoviy tavsifi, matbuot va axborot erkinligi, davlat tuzilishi, federatsiya, konfederatsiya, suverentitet, suveren davlat.

IV bo‘lim. DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI. (10 soat).

17-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi. 1soat.

O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati yangilash va rivojlantirish tamoyillari. Hokimiyatni taqsimlash tamoyillari.

18-mavzu. Oliy Majlis va uning vakolatlari. 1 soat.

Oliy Majlis va uning tarkibini shakllantirish tartibi. Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatini tuzish tartibi. Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining mutlaq vakolatlari. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonun.

19-mavzu. Amaliyot darsi. Qonun loyihasini qabul qilamiz. 1 soat.

Qonunchilik tashabbusi huquqining O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga muvofiqligi. Qonunchilik jarayoni bosqichlari.

20-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 1 soat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti–davlat rahbari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini saylash va uning vakolatlarini to‘xtatish tartibi.

21-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari. 1 soat.

Vazirlar Mahkamasi – mamlakat ijroiya organi. Vazirlar Mahkamasi tarkibi. Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo‘nalishi. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonuni.

22-mavzu. Joylardagi mahalliy davlat hokimiyatining organlari. 1 soat.

Xalq deputatlari kengashi. Viloyat, tuman va shaharlar hokimlari faoliyati. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyatining joylardagi organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.

23-mavzu. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari. 1 soat.

Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari va ularning huquqiy maqomi. O‘z-o‘zini boshqarish organlarini tashkil etish tartibi. Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari qoshidagi komissiya faoliyati.

24-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi. 1 soat.

Sud – inson huquqlarini himoya qilishning asosiy bo‘g‘ini. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi. O‘zbekiston Respublikasida sudlar faoliyatining huquqiy asoslari. Oliy sud va uning vakolatlari. “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun.

25-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi sud organlari ish faoliyatini tashkil etish. 1 soat.

Adolatli sudlovni amalga oshirishning asosiy talablari. Sudlov hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy tamoyillari. Sudyalarning huquqlari va majburiyatlari. Aybsizlik prezumpsiyasi.

26-mavzu. Amaliyot darsi. Konstitutsiyaviy sud majlisi. 1 soat.

Konstitutsiyaviy sud vakolatlari. Sud majlisini o‘tkazishga tayyorgarlik. Sud majlisini o‘tkazish. Muammolar muhokamasi. Qaror qabul qilish.

Bo‘limdagi asosiy tushunchalar va atamalar.

hokimiyat, hokimiyatni taqsimlash tamoyillari, qonunchilik tashabbusi, prezident, boshqaruvning prezidentlik shakli, boshqaruvning parlament shakli, hokimiyat ijroiya organlari, hokimiyat, kengashlar, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqaruvi, fuqarolar yig‘ini, aybsizlik prezumpsiyasi, sud hokimiyati organlari faoliyatining konstitutsiyaviy tamoyillari.

V bo‘lim.
KONSTITUTSIYA - MAMLAKATDA DEMOKRATIYANI
RIVOJLANTIRISH
KAFOLATI (5 soat).

27-mavzu. O‘zbekiston Respublikasidagi saylov tizimi. 1 soat.

Umumxalq saylovlari – mamlakatni rivojlantirish yo‘lini tanlash. Saylov tizimi modellari. Saylovlarning demokratik tamoyillari. Referendum va uni o‘tkazish tartibi. Saylovlar o‘tkazilishini nazorat qilish. Saylovlar to‘g‘risidagi qonun buzilishi uchun javobgarlik.

28-mavzu. Amaliyot darsi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlari va senatorlari saylovi. 1 soat.

Oliy Majlis deputatlari va senatorlari saylovini o‘tkazish tartibi. Maktab kengashi saylovi.

29-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari. 1 soat.

Prokuratura organlari strukturasi. Prokuror–qonun himoyachisi. Prokuratura organlarining asosiy vazifalari. Prokuratura organlari faoliyatining xususiyatlari. Qonunlarning yagona shakldagi ijrosini nazorat qilish. Prokuror nazorati hujjatlari turlari. Prokuratura organlari tomoindan balog‘atga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish. “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun.

30-mavzu. O‘zbekiston Respublikasida moliya va kredit. 1 soat.

Mamlakatning o‘zaro huquq va iqtisodiyot munosabatlari. Davlat moliya tizimi. Shaxsiy moliya va kredit tizimi. Moliyaviy tizim – banklar, jamg‘arma kassalari. Markaziy bank. Soliq to‘lash – fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyati.

Yakuniy takrorlash (yakuniy nazorat darsi) 1 soat.

Bo‘limdagi asosiy tushunchalar va atamalar:

Sud organlarining mustaqilligi, adolatli sud ob‘ektivligi, adolatli sud qonuniyligi, adolatli sud asosiligi va adolatliligi, sudda ishlarni ochiq ko‘rib chiqish, sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi, fuqarolarning qonun oldida tengligi, aybsizlik prezumpsiyasi, sud organlarida gumanizm, oila–jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, nikoh yoshi, nikohdan o‘tish erkinligi, qonunchilik tashabbusi huquqi.

Umumta’lim maktablari uchun

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Takrorlash	Nazorat ishi	Yakuniy nazorat ishi
1	Kirish	1	1			
2	Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni	4	4			
3	Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari	8	7	1		

4	Jamiyat va shaxs	5	4		1	
5	Davlat boshqaruv organlari	10	10			
6	Konstitutsiya – mamlakatda demokratiyani rivojlantirish kafolati.	6	5			1
	Jami	34	31	1	1	1

Ixtisoslashtirilgan sinflar uchun


№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Takrorlash	Nazorat ishi	Yakuniy nazorat ishi
1	Kirish	1	1			
2	Konstitutsiya-davlatning asosiy qonuni	17	17			
3	Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari	20	18	1	1	
4	Jamiyat va shaxs	20	20			
5	Davlat boshqaruv organlari	22	20	1	1	
6	Konstitutsiya – mamlakatda demokratiyani rivojlantirish kafolati.	22	20	1		1
	Jami	102	95	4	2	1

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

**IJTIMOIIY FANLAR BLOK MODULI BO‘YICHA
UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING
O‘QUV DASTURI
(XI SINF)**

**DAVLAT VA HUQUQ
ASOSLARI**



Toshkent-2018

TUSHUNTIRISH XATI

O'quvchilar davlat va huquq asoslari faniga oid dastlabki tushunchalarni I-IV-sinflardagi "Konstitutsiya alifbosi" darslarida, shuningdek, V-VII-sinflarda "Konstitutsiya olamiga sayohat" darslari orqali oladilar. Mazkur sinflarda Konstitutsiya va uning mohiyati, inson bilan qonun va huquqning bog'liqligi, qonunlar, inson huquqlari, fuqarolarning burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlar hosil qilinadi.

Umumiy o'rta ta'limning 8-11-sinflarida o'qitiladigan "Davlat va huquq asoslari" fanida jamiyat, davlat, shaxs va huquq tushunchalari, axloq va huquq munosabatlari, davlat va jamiyat munosabatlari, davlat shakllari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat, huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik va uning kelib chiqishi, voyaga yetmaganlarning huquq va burchlari haqidagi tushunchalar, Konstitutsiyaviy huquq asoslariga doir tushunchalar: Konstitutsiyaning yaratilishi, asosiy prinsiplari, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyat va shaxs munosabatlari, davlat hokimiyati organlari va ularning vakolatlari, shuningdek, saylov tizimi va ma'muriy xududiy tuzilishi haqida bilimlar, huquq sohalariga doir asosiy tushunchalar o'rgatiladi va o'quvchilarni huquqiy munosabatda ishtirok etishda huquq normalariga rioya etish ruhida tarbiya qilinadi. Shuningdek, huquq sohalariga oid normativ – huquqiy hujjatlar bilan tanishib, ushbu normativ – huquqiy hujjatlarni amaliy hayotda qo'llashga o'rgatiladi.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning maqsadi: o'quvchilarni huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirish, o'quvchilarga davlat va huquqning kelib chiqishi, davlat va huquqning o'zaro munosabati, huquq sohalar, qonunlar, huquqning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlarni berish, o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy, ijodiy, erkin va mustaqil fikrlashini shakllantirishdan iborat.

Davlat va huquq asoslari fanini o'qitishning vazifalari:

o'quvchilarning asosiy huquqiy tushuncha, nazariya va qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlarini shakllantirish;

o'quvchilarda konstitutsiyaviy burch, majburiyatlarni bilish va ularga rioya qilish ko'nikmasini hosil qilish;

huquq ta'limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika yutuqlari bilan bog'lanishini ta'minlash asosida o'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;

o'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning huquqlarini bilishlari, burch va majburiyatlariga rioya qilishlariga yo'naltirish;

davlat va uning qonunlarini hurmat qilish, ularga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

o'quvchilarda o'z xatti-harakatlarini belgilangan me'yorlar doirasida tartibga solish va boshqara olishni tarbiyalashdan iborat.

huquqiy bilimlar zaminida huquqiy normativ hujjatlar, zamonaviy qonunchilik yutuqlari, tarixda yashab ijod etgan buyuk allomalar va hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan olimlarning huquq faniga oid ishlari bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni milliy istiqlol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, huquq fanidan olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Ushbu o'quv dasturiga huquqiy meyoriy-hujjatlarga asoslangan holda zarurat tug'ulganda belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin

"Davlat va huquq asoslari" fani chuqur o'qitiladigan ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalarining 11-sinflarida Davlat va huquq asoslari fani 1 soat ko'proq ya'ni jami 68 soat o'qitiladi. Bunda aynan, shu mavzularni chuqurlashtirib o'qitish, maktabning o'quvchilari o'zlashtirishidan kelib chiqqan holda maktabning metodik kengashida mavzular soatini ko'paytirish yuzasidan muhokama o'tkaziladi va pedagogik kengashda tasdiqlab olinadi.

Davlat va huquq asoslari

(haftasiga 1 soatdan jami 34 soat, B1+: 68 soat)

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

oilaviy munosabat ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari, ularni tartibga soladigan normativ hujjatlardan foydalana oladi;

jinoyat uchun jazo muqarrarligini anglaydi;

jinoyatni ochishda tegishli organlarga murojlat qiladi;

sud yig'ilishlarida ishtirok etish va guvohlik berish tartiblarini angelaydi;
moliyaviy masalalarda huquqiy munosabat bildiradi;
jinoyat protsessida ishtirok etishda belgilangan talablarga rioya qiladi;
dalil va isbotning o'zaro aloqadorligini angelaydi.

Kirish. (1 soat)

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatining huquqiy asosi.
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirining huquqiy asosi.

I BOB. OILA HUQUQI

(6 soat, B1+: 13 soat).

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oila huquqning konstitutsiyaviy asosi. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar. Oila huquqning sub'ektlari. Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning teng huquqliligi.

Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Nikoh tuzish tartibi. Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi. Nikoh yoshi. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish.

Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari. Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi. Oilada er va xotinning teng huquqliligi. Er va xotinning familiya tanlash huquqi. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi. Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari.

Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Er va xotinning umumiy mulki. Er va xotinning umumiy mol-mulkka egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi. Er va xotinning har birining mulki. Er va xotinning shaxsiy buyumlari. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda ulushlarni aniqlash.

Er va xotin mol-mulking shartnomaviy tartibi. Nikoh shartnomasi. Nikoh shartnomasini tuzish. Nikoh shartnomasining mazmuni. Nikoh

shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish. Nikoh shartnomasini haqiqiy emas, deb topish. Nikohning tugatilish asoslari. Nikohdan ajratish tartibi.

II BOB. JINOYAT HUQUQI

(13 soat, B1+: 26 soat).

Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyilari. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi jinoyat huquqining asosiy manbai. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi. Jinoyat kodeksining vazifalari va prinsiplari.

Jinoyat belgilari. Jinoyat belgilari. Ayb, ayb shakllari, qasd, qilmishni istesno etadigan holatlar. Ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etish va uning oqibatlari.

Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi. Fuqarolarning jinoiy javobgarligi. Qonun oldida tenglik prinsipi. Jinoiy javobgarlikka tortish yoshi. Jinoyatda ishtirokchilik tushunchasi. Jazo tushunchasi va uning turlari. Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari.

Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar. Shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar. Fuqarolarning teng huquqliligini buzish. Fuqarolarning turar joyi daxlsizligini buzish. Xat-yozishmalar, telefonda so'zlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini, Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishning huquqiy oqibati.

Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. Voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash. Ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish.

Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilishning huquqiy oqibatlari.

Nazorat ishi

Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. O'zgarar mulkini talon-taroj qilish. Soxta tadbirkorlik. Soliqlar yoki boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash. Elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish.

Hokimiyat boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar. Korrupsiya va uning belgilari. Korrupsiyaga olib keladigan holatlar. Pora olish, pora olish va berishda vositachilik qilish.

Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish. Sanitariyaga oid qonun hujjatlarini yoki epidemiyaga qarshi kurash qoidalarini buzish. Yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish.

Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar. Axborotlashtirish qoidalarini buzish. Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish. Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadini ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish.

III BOB. MOLIYA HUQUQI

(5 soat, B1+: 10 soat).

O'zbekistonda moliya-kredit tizimi. Konstitutsiya moliya-kredit huquqining asosiy manbai. Moliya va davlat moliyaviy faoliyati.

Moliyaviy-huquqiy munosabatlar. Moliyaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy-huquqiy munosabatlarning turlari. Moliya huquqi sub'ektlari tushunchasi va tizimi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va byudjet huquqi. Byudjet huquqi. Budjet tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish. Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish. Soliq huquqining umumiy tavsifi Soliqlar tushunchasi va funksiyalari. Soliqlar tasnifi. Soliq huquqi va uning manbalari, soliq to'g'risidagi qonun elementlari. Soliq huquqiy munosabatlari.

Davlat kreditining huquqiy asoslari. Davlat krediti tushunchasi. Davlat krediti sohasidagi huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Davlat ichki qarzlari turlari.

IV BOB. EKOLOGIK HUQUQ

(3 soat, B1+: 5 soat).

Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ekologik huquqning asosiy manbai. Ekologik huquqning maqsad-vazifalari va asosiy tamoyillari.

Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik. Ekologik tartibbuzarlik tushunchasi. O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni. Ekologik huquqbuzarlik uchun javobgarlik.

V BOB. PROTSESSUAL HUQUQ

(6 soat, B1+: 13 soat).

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi protsessual huquqning asosiy manbai. Xalqaro huquqning umume'tirof etgan tamoyillari va prinsiplarinining protsessual qonunchilikda e'tirof etilishi. Aybsizlik prezumpsiyasi. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi va Jinoyat protsessual Kodekslari.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari. Protsess ishtirokchilari va ularning huquq-majburiyatlari, protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar va ularning huquqlari, majburiyatlari.

Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar.

Dalillar va isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar. Dalillar va ularning turlari. Isbot qilishning umumiy shartlari. So'roq qilish va uning tartibi. Voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilish tartibi, ayb e'lon qilish shartlari.

Davlat va huquq asoslari kursini mavzuiy rejalashtirish

№	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Nazorat ishi
1	Kirish	1	1		
2	Oila huquqi	6	5	1	
3	Jinoyat huquqi	13	11	1	1
4	Moliya huquqi	5	5		

5	Ekologik huquq	3	2	1	
6	Protsessual huquq	6	5		1
	Jami	34	29	3	2

**Davlat va huquq asoslari kursini chuqurlashtirib
o'qitishni mavzuiy rejalashtirish**

№	Bo'lim va boblar nomi	Soatlar taqsimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Nazorat ishi
1	Kirish	1	1		
2	Oila huquqi	13	11	1	1
3	Jinoyat huquqi	26	22	3	1
4	Moliya huquqi	10	8	1	1
5	Ekologik huquq	5	4	1	
6	Protsessual huquq	13	9	3	1
	Jami	68	55	9	4